

VOYAGA YETMAGAN JINOYATCHINING SHAXSI VA DEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI

*Toyirov Nuriddin Doniyorbek o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti tyutori
E-mail: toyirovnuriddin25@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish masalalarini ko‘rib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari hamda xalqaro hujjatlardagi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishdagi tutgan o‘rni yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, jinoyatchilik, shart-sharoit, ruxiyat, Plenum qarori.

Аннотация: В данной статье автор рассматривает причины преступности несовершеннолетних. Будет освещена роль законодательства Республики Узбекистан и международных документов в профилактике преступности несовершеннолетних.

Ключевые слова: Несовершеннолетние, преступность, условия, дух, решение Пленума.

Abstract: In this article, the author examines the issues of preventing juvenile delinquency. The role of the legislation of the Republic of Uzbekistan and international documents in the prevention of juvenile delinquency will be highlighted.

Key words: minors, crime, conditions, spirit, decision of the Plenum

Voyaga yetmagan jinoyatchilarning shaxsiga doir xususiyatlarini bilish hamda amaliy jihatdan tadbiq etish bu kriminologiyada aloxida ahamiyatga ega. Chunki voyaga yetmagan shaxsni ilmiy tomonidan bilmaslik, uning jinoyatchiligiga qarshi kurarishda samara bermaydi. Bolaning psixologiyasi, uning tasavvuri yoshga bog‘liq bo‘ladi. Demak u sodir etgan jinoyat ham uning yoshiga yarasha hisoblanadi.

Voyaga yetmagan shaxsning shaxsiga doir xususiyatlarini o‘rganganda, uning jinsini, yoshini, ijtimoiy xususiyatlarini, banligini, bir so‘z bilan aytganda uning demografik kelib chiqishini ham o‘rganish kerak. Chunki voyaga yetmagan shaxsga sud tomonidan beriladigan jazo yoki reabilitatsiya qilish asoslariga muvofiq kelishi lozim.

Voyaga yetmagan shaxsning jinsiga doir qismiga to‘htaladigan bo‘lsak, statistik ma’lumotlarga ko‘ra birgina o‘tgan yil hisobiga ko‘ra voyaga yetmaganlar orasida 92,3 foiz jinoyatlarni o‘g‘il bolalar sodir etgan bo‘lsa, 7,7 foizini esa qiz bolalar tashkil etgan. Qiz bolalar sodir etadigan jinoyatlar soni katta yoshdagi ayollar sodir

etadigan jinoyatlar soniga nisbatan deyarli ikki barobar kam miqdorni ko'rsatmoqda. Lekin voyaga yetmagan qizlar jinoyatlarining soni o'tgan o'n yilliklar soni bilan solishtirilganda qisman o'zgarish sezilmagan.

Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, keyingi paytlarda qiz bolalar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar miqdori voyaga yetmaganlar jinoyatlari tarkibida 2-2,5 marta ko'paygan. Jumladan, har uchta fohishadan ikitasi voyaga yetmaganlardir. Shuningdek, voyaga yetmagan qizlar ko'pchilik jinoyatlarning sodir etilishida yo'naltiruvchi, o'g'rilik, talonchilik, tamagirlilik, firibgarlik, hatto odam o'ldirish jinoyatlarida esa ishtirokchi sifatida qatnashganlar¹.

Bundan tashqari tadqiqot olib borgan mutaxassislarning bildirishlariga ko'ra voyaga yetmagan qizlar jinoyatlarni spirtli ichimliklar ichmasdan, yolg'iz o'zi yoki sherik bo'lib olmasdan ko'chada yoki jamoat joyida emas, ko'proq yashash binolarida sodir etishadi. Asosan voyaga yetmagan qizlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar ochiqdan-ochiq yoki vahshiyona tarzda emas, balki yashirin, xufiyona tarzda sodir etiladi. Voyaga yetmagan qizlar tomonidan biz yuqori paragraflarda aytib o'tganimizdek ular o'g'rilik hamda bezorilik jinoyatlarini ko'proq sodir etishadi. Yoshga nisbatan olib qaraydigan bo'lsak, ushbu jinoyatlar 16-18 yosh oralig'ida 14-15 yosh oralig'iga nisbatan kamroq sodir etiladi.

Voyaga yetmaganlar 10-15 yosh oralig'ida jinoyat sodir etishga moyillik ortadi. Chunki bu yosh oralig'i mutaxassislar tomonidan o'tish davri deya ta'kidlangan. Bu yoshda bola jizzaki, tez asabiy bo'la boshlaydi. O'zini katta shaxsdek xis qila boshlaydi. Oila a'zolarning dakki berishlari bolaga ortiqchadek tuyiladi, bu orqali voyaga yetmaganlar orasida bedarak yo'qolish hollari ko'payadi.

14-18 yosh oralig'ida voyaga yetmaganlar jinsiy ulg'ayganlik yakuniga yetadi va ishlab chiqarish mehnatiga kirishadilar. Bu yoshda ular ijtimoiy, huquqiy tomonidan, axloqiy jihatdan normalarga rioya etishni boshlashadi, qonun oldida javobgarlik xissini sezishni boshlashadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 17-moddasida jinoiy javobgarlikka tortish yoshi belgilangan bo'lib. Umumiy javobgarlikka tortish yoshi 16 yosh etib belgilangan. Biroq ayrim jinoyat turlaridagina javobgarlik yoshi o'zgaradi.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga o'zgartirish kiritilgan bo'lib, unga ko'ra endilikda jinoyat sodir etgunga qadar o'n uch yoshga to'lgan shaxslar jinoyatni og'irlashtiruvchi holatlarda ya'ni qasddan odam o'ldirganliklari uchun jinoiy javobgarlikka tortilmasdan, bu yosh 14 yosh etib

¹ Криминология: Дарслик / З.С. Зарипов, Ю.С.Пулатов, Г.А.Аванесов ва бошк.; проф. З.С.Зарипов таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2006. – 203-204 бет.

belgilandi. Ushbu Qonunga ko‘ra endilikda faqat jinoyat sodir etgunga qadar o‘n to‘rt yoshga to‘lgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishimiz belgilangan, bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, shaxsni o‘n to‘rt yoshdan boshlabgina javobgar qilishimiz mumkin. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 137-moddasi, odam o‘g‘irlash jinoyati bo‘yicha javobgarlikka tortish yoshi o‘n to‘rt yosh etib belgilangan².

Bundan tashqari ayrim jinoyat turlarida shaxs jinoyat sodir etguniga qadar o‘n sakkiz yoshga to‘lgandagina javobgarlikka tortiladi. Misol tariqasida birgina jinoyatni oladigan bo‘lsak, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 128¹-moddasi, o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish jinoyatining sub’ekt yoshi o‘n sakkiz yosh etib belgilangan.

Voyaga yetmaganlarning ijtimoiy bandligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, voyaga yetmaganlarning ijtimoiy bandligiga ko‘ra jinoyat sodir etishlari yoki jinoyat yo‘liga kirishlarini aniqlash kriminologiyaning asosiy e’tibor qaratadigan muxim tomoni hisoblanadi. Ushbu ijtimoiy bandlikni darajalarga qarab ajratib olishda ham kriminologiya fani rivojlanib bormoqda. Darajalarga ajratishda quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: ishsizlar va o‘qimaydiganlar, ish bilan ta’milanganlar hamda o‘quvchi yoshlar. Shaxsning ijtimoiy banligi nuqtayi nazaridan olib qaralsa ma’lum bir g‘ayriqonuniy harakatlarda faol ishtirok etish-etmasligini, g‘ayriqonuniy harakatlarni uning bandligi jihatidan qayerlarda sodir etishi, qachon sodir etishi mumkinligini bilib olish mumkin bo‘ladi. Voyaga yetmaganlarni kunduzi mактабга borib kelish vaqtiga qarab ularning jinoyat sodir etish vaziyatini bilib olish mumkin. Chunki ular asosan jinoyatni mактабга ketayotganda yoki qaytayotganda sodir etishadi. Makteb vaqtida esa asosan ko‘proq bezorilik hamda o‘g‘irlik jinoyatlarini sodir etishadi. Maktebdan bo‘sh vaqtlarida esa biror hunarmandchilik bilan yoki kasb o‘rganish bilan, qo‘srimcha darslarga borish orqali o‘zini band etgan bo‘lsa bu shaxslar jinoyat sodir etishi kam uchraydi. Lekin ijtimoiy band bo‘lmagan voyaga yetmaganlar jinoyatni ko‘p sodir etishadi. Chunki ular bo‘sh vaqtidan qanday unumli foydalanishni bilishmaydi.

Bundan tashqari yuqoridaqilarga qo‘srimcha qiladigan bo‘lsak, voyaga yetmagan shaxs ijtimoiy banligidan kelib chiqib, u qaerda ko‘proq vaqtini o‘tkazadigan bo‘lsa shu joyga yaqin bo‘lgan, shu joy atrofidagina jinoyat sodir etadi. Voyaga yetmaganlar o‘zga joylarga borib jinoyat sodir etishmaydi.

Voyaga yetmaganlarning jinoiy-huquqiy xususiyatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, voyaga yetmagan jinoyatchilarining asosan 17 foiz qismi huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ro‘yhatda turgan, ularning 10 foiz qismi oldin sudlanmagan, jinoiy javobgarlikka tortilmagan, lekin boshqa tomondan tarbiyaviy harakterdagi

² <https://lex.uz/uz/docs/5764516>

jozolar bilan jazolangan bo‘lishadi. Statistik ma’lumotlarga yuzlanadigan bo‘lsak, voyaga yetmaganlarning qariyb 20 foizi huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan vaqtida oldin sodir etgan jinoyatlari uchun sudlangan yohud sudlanganligi olib tashlanmagan bo‘ladi.

Voyaga yetmaganlarning kriminologik shaxsining keyingi belgisidan biri – ularning psixologik va axloqiy xususiyatlaridan biridir. Tadqiqotlarga ko‘ra 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarda o‘tish davri, ulg‘ayish davri bo‘lganligi uchun ularning harakterida o‘zgarishlar kuzatiladi. Ularda uyat-andisha, o‘zgalarning tashvishlari bilan qiziqmaslik, o‘zini tuta olmaslik, qo‘pollik, o‘jarlik, ijtimoiy muhitga moslasha olmaslik kabi salbiy xususiyatlar shakllana boshlaydi. Bu yoshda bolalar o‘qishga, siyosatga qiziqishi past bo‘ladi, aksincha, o‘yinqaroqlik, ichkilikka hamda tamaki mahsulotlariga ruju qo‘yish avj oladi, o‘z ehtiyojlarni qondirish uchun g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishdan ham toyishmaydi, har qanday yo‘l bilan, u jinoyat yo‘li bo‘ladimi farqi yo‘p moddiy mablag‘ topishga qo‘l urishadi³.

Voyaga yetmaganlarning ruhiyatida bo‘ladigan o‘zgarishlar ham ularning shaxsiyatiga ta’sir o‘tkazadi. Chunki ular sodir etadigan jinoyatlarni tasniflashga va shu tasniflash orqali ularga sud tomonidan beriladigan qonuniy jazolarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Misol uchun, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan odam o‘ldirish jinoyatini oladigan bo‘lsak, ular odamni shafqatsizlarcha qasddan o‘ldirishi mumkin, ehtiyojsizlikdan o‘ldirishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib *xulosa* qiladigan bo‘lsak, voyaga yetmaganlarning shaxsi va demografik belgilari katta shaxslar kabi bo‘lsada, lekin ularning orasida ham farq borligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Voyaga yetmaganlarda kattalardagidek jinoyat sodir etishda tajriba bo‘lmaydi. Voyaga yetmaganlar ko‘p jinoyatlarni ishtirokchilikda, guruh tarkibida sodir etishadi. Bu esa jinoyatni tez va to‘la ochishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda qiyinchilikni keltirib chiqaradi. Buning sababi o‘laroq voyaga yetmaganlar orasida keng tarqalgan birodarlariga nisbatan sodiqlikni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Усмоналиев М., Каракетов Й. Криминология. -Т.: Янги аср авлоди. 2002. – Б.94.
2. Ф.Тахиров. Вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган жиноятлар. Тошкент-2022. – 19 б.
3. Иванов В.Г. Причинность и детерминизм. – СПб, 2014. – С. 14-15.
4. <https://lex.uz/>

³ Samandarov S. M. O. G. L. VOYAGA YETMAGAN JINOYATCHILAR SHAXSINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 475-481.